



FILMONIMLARNING TARJIMA JARAYONIDAGI
LINGVOKULTUROLOGIK MUAMMOLARI (INGLIZ, O‘ZBEK VA
RUS TILLARI MISOLIDA)

Xujakulova Maryam Xakimjonovna

Osiyo xalqaro universiteti

1-bosqich tayanch doktoranti

Buxoro shahar, O‘zbekiston Respublikasi

Annotatsiya

Mazkur maqolada badiiy film nomlari yoki filmonimlarning tarjima jarayonida yuzaga keladigan lingvomadaniy muammolari ingliz, o‘zbek va rus tillari misolida tahlil qilingan. Filmonimlar yaratilishi milliy madaniyat, dunyoqarash va bir qancha pragmatik omillar bilan bog‘liq bo‘lib, ularning tarjimasi shunchaki leksik almashinuv emas, balki madaniyatlararo moslashuv jarayonining yaqqol namoyishi hisoblanadi. Tadqiqot davomida 2020-2025 yillar oralig‘ida yaratilgan 150 ta (uch tilga muvofiq ravishda) film nomlari tarjimasida namoyon bo‘ladigan o‘ziga xos jihatlar va madaniy realiyalar tarjimasidagi ziddiyatlar chog‘ishtirma tahlil orqali ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: filmonim, tarjima, lingvomadaniyatshunoslik, madaniy realiya, pragmatika, chog‘ishtirma tahlil.

Аннотация

В данной статье анализируются лингвокультурологические проблемы, возникающие при переводе названий художественных фильмов или фильмонимов на английский, узбекский и русский языки. Создание фильмонимов связано с национальной культурой, мировоззрением и рядом прагматических факторов, а их перевод представляет собой не просто лексический обмен, а наглядную демонстрацию процесса межкультурной адаптации. В ходе





сопоставительного анализа исследование выявило специфические аспекты и противоречия в передаче культурологических реалий, отраженных в переводах 150 фильмов, созданных в период с 2020 по 2025 год (на трех языках соответственно).

Ключевые слова: фильмоним, перевод, лингвокультурология, культурологические реалии, прагматика, сопоставительный анализ.

Abstract

This article analyzes the linguistic and cultural problems that arise in the translation of film titles or filmonyms into English, Uzbek, and Russian. The creation of filmonyms is associated with national culture, worldview, and a number of pragmatic factors, and their translation is not just a lexical exchange, but a clear demonstration of the process of intercultural adaptation. The study revealed the specific aspects and contradictions in the translation of cultural realias reflected in the translations of 150 film titles created between 2020 and 2025 (in three languages correspondingly) through a comparative analysis.

Keywords: filmonym, translation, linguistic and cultural studies, cultural realias, pragmatics, comparative analysis.

So‘nggi yillarda kino san’atining jadal rivojlanishi va film eksport va importining keskin oshishi sababli uning har bir kompozitsion birligining butunligi, tarjima adekvatligi va undagi madaniy kodlar saqlanishiga qay darajada erishilayotgani chuqur tahlil ostiga olinmoqda.

Filmonim — bu film asarining individual nomi bo‘lib, u onomastika doirasida o‘rganiladi. Lingvomadaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan filmonimlar madaniy belgi, milliy ruh, dunyoqarashni aks ettiruvchisi va ijtimoiy kontekst tashuvchisi hisoblanadi. A.Yu.Yermolenko bejizga film nomini “har qanday kino asarining yuzi” [2, 421] deb ta’kidlamagan. Film nomlari nafaqat reklama va marketing vositasi, balki film mohiyati va syujetini o‘zida aks ettiruvchi birlik vazifasini bajargan holda tilshunoslar va



tarjimashunoslar uchun ham muhim tadqiqot obyekti sifatida ko‘rilmogda. Ushbu maqola aynan shu birlik asosida lingvomadaniy tahlilni amalga oshirishni ko‘zda tutadi. Unda ingliz, o‘zbek va rus filmonimlari o‘zida mujassamlashtiradigan madaniy elementlar, til va jamiyatda ro‘y berayotgan ma’naviy siljishlar yaqqol namoyon bo‘ladi. Noqardosh tillardagi film nomlanishining umumiy, farqli va o‘ziga xos jihatlarini aniqlash, ularni tarjima qilish jarayonidagi potensial muammolarini o‘rganish bilan bir qatorda chog‘ishtirish orqali tahlil amalga oshirildi va bu maqolaning ilmiy yangiligini tashkil etdi.

Tadqiqot 2020-2025 yillar oralig‘ida dunyo yuzini ko‘rgan 150 ta saralangan film nomlarining lingvomadaniy tahlilini maqsad qilgan bo‘lib, natijalar har uchala til kesimida yoritib berilgan. Tadqiqot jarayonida bir qator manbalar asos bo‘lib xizmat qildi. Jumladan, olimlar A.Yu.Yermolenko, Z.M.Zaripova, O.A.Mironova, Amerika filmlari nomlarining rus tiliga tarjima qilishdagi zamonaviy amaliyotlar va “lingvomadaniy lokalizatsiya” jarayonini “interfeys nazariyasi” nuqatai nazaridan ko‘rib chiqib, nomlarni “qayta yaratish” yoki madaniy moslashtirishdagi bir qancha xususiyatlarni sanab o‘tishgan.

Filmonimlar tarjimasi jarayonida yuzaga keladigan muammolar ko‘p qatlamli bo‘lib, ular lingvistik, madaniy, pragmatik va marketing omillar bilan chambarchas bog‘liq. 2020–2025 yillarda ingliz, rus va o‘zbek tillarida namoyish etilgan filmlar nomlari tahlili asosida quyidagi 8 ta asosiy muammo aniqlandi:

1. Semantik ko‘pma’nolilik (polisemiya) muammosi:

Ko‘plab filmonimlar ko‘p ma’noli birliklarga asoslangan bo‘lib, tarjimada asl semantik mohiyatni to‘liq saqlash va yetkazib berish qiyinchilik tug‘diradi: ing. “*The Holdovers*” – rus. “*Оставленные*”, ing. “*Good One*” – rus. “*Хорошенькая*”, ing. “*Mass*” – rus. “*Исповедь*”, ing. “*Fresh*” – rus. “*Свежатинка*”. Bu misollarda tarjima jarayonida asl so‘zning barcha

ma'nolari emas, balki film syujetiga eng yaqin semantik komponent tanlab olingan. Natijada semantik torayish yuzaga keladi.

2. Metaforik filmonimlarni uzatish muammosi

Metaforaga asoslangan filmonimlar tarjimada eng murakkab birliklar hisoblanadi. Masalan, ing. *“The Green Knight”* – rus. *“Легенда о Зеленом рыцаре”*, ing. *“Dream Scenario”* – rus. *“Герой наших снов”* filmonimlarida metafora ba'zan so'zma-so'z saqlangan bo'lsa, ba'zan esa lingvomadaniy moslashtirish maqsadida talqin qilish orqali syujet mazmuniga aniqlik kiritilgan.

3. Pragmatik moslashuv (auditoriya omili), nomning qisqartirilishi, kengaytirilishi yoki to'liq o'zgarishi

Tarjima qilingan filmonim auditoriyaning madaniy tajribasiga moslashtirish usuli ham lingvomadaniy siljishni aks ettiradi. Masalan, ing. *“Hit Man”* - rus. *“Я не киллер”*, ing. *“Wake Up Dead Man”* – rus. *“Достать ножи: Воскрешение покойника”*, ing. *“The Fall Guy”* – rus. *“Каскадёры”*, ing. *“Sketch”* - rus. *“Ужасстики. Ожившие рисунки”*, ing. *“Civil War”* - rus. *“Падение империи”* filmonimlari misolida pragmatik effekt kuchaytirilgan, biroq asl nomdan sezilarli farq mavjud va mazmun kengayishi yaqqol namoyon bo'ladi.

Shuningdek, filmonim strukturasi ongli ravishda o'zgartirish kiritilgan: ing. *“Arthur the King”* – o'zb. *“Artur sen qirolsan”*, – rus. *“Артур, ты король”*, ing. *“Christmas Eve in Miller's Point”* – o'zb. *“Miller's Pointdagi yangi yil kechasi”* – rus. *“Рождество в Миллерс-Пойнт”*, ing. *“The Zone of Interest”* - o'zb. *“Qiziqish doirasi”* - rus. *“Зона интересов”*. Bu holat strukturadagi birlik - ko'plik shakllar almashinuvi, so'z tushurib qoldirish (omission) - *Christmas Eve* – *Канун Рождества* o'rniga *Рождество* deb qoldirish, bir so'z turkumidan boshqasiga o'zgarishi keng tarqalganligini ko'rsatadi.

4. Intertekstual birliklarni uzatish muammosi

Ba'zi filmonimlar boshqa adabiy, tarixiy yoki madaniy matnlarga ishora qiladi: ing. *"The Tragedy of Macbeth"* – o'zb. *"Makbet fojiasi"* – rus. *"Трагедия Макбета"*, ing. *"Dune: Part Two"* – o'zb. *"Dyuna: ikkinchi qism"* – rus. *"Дюна: Часть 2"*. Intertekstual yoki matnlararo aloqalar saqlansa-da, ba'zi tillarda ularning semantik yukini tushunish qiyinlashadi. Demakki, "madaniyatlaro kinomuloqotda maksimal natijaviylikka erishish uchun qabul qiluvchi (retsipient) til, madaniyat va kommunikativ darajalarda madaniyatlararo kompetensiya ega" bo'lishi talab etiladi [1, 404].

5. Nomning emotsional-ekspressiv qiymatini saqlash muammosi

Film nomining emotsional ta'siri, ya'ni stilistik bo'yoqdorlik darajasi tarjimada kamayishi yoki kuchayishi mumkin: ing. *"Poor Things"* – o'zb. *"Bechoralar-baxtsizlar"* - rus. *"Бедные-несчастные"*, ing. *"You Hurt My Feelings"* – o'zb. *"Sen qalbimni og'ritding"* – rus. *"Ты ранил мои чувства"*. Tarjima ba'zan emotsional rangni kuchaytiradi, bu esa asl ohangdan chekinishga olib keladi.

6. Translitratsiya va ekvivalent tarjima o'rtasidagi tanlov muammosi

So'nggi yillarda filmonimlar tarjima qilinmay, fonetik ko'chirilish holatlarini ko'p uchratishimiz mumkin: ing. *"Anora"* – o'zb. *"Anora"* – rus. *"Анора"*, ing. *"Barbie"* – o'zb. *"Barbi"* – rus. *"Барби"*, ing. *"The Brutalist"* – o'zb. *"Brutalist"* – rus. *"Бруталист"*. Bu usul qaysidir darajada qulay va universal bo'lsa-da, semantik yuklamani cheklaydi.

7. Milliy bo'yoqdorlik (kolorit)ni saqlash muammosi (o'zbek filmlari misolida)

O'zbek filmlarining inglizcha va ruscha nomlarida milliylik qisman yoki to'liq yo'qoladi: o'zb. *"Rangsiz tushlar"* – ing. *"Colorless Dreams"* – rus. *"Бесцветные сны"*, o'zb. *"Amir Bahodir Yalangto'sh"* – ing. *"The Emir of Samarqand"* – rus. *"Эмир Самарканда"*, o'zb. *"Chimildiq"* – ing. *"Wedding Canopy"* / *"The Canopy"* – rus. *"Шатёр"*.

8. Mahalliyashtirish (domestication) yoki begonalashtirish (forenization) masalasi: madaniy realialarni tarjima qilishdagi muammolar

Milliy-madaniy kontekstga ega filmonimlar tarjimasida madaniy kodlar yo‘qolishi ehtimoli yanada ortadi. Bu holatda tarjimon oldida ikkita asosiy tanlov turadi: madaniy kodni tashuvchi film nomlarini tarjima qilinadigan til auditoriyasiga tushunarliroq bo‘lishi uchun tildagi elementlarni “mahalliyashtirish” yoki asl tildagi realiyani o‘z ko‘rinishida saqlash ya’ni tarjima qilingan tilga “begona” bo‘lgan elementlarni ko‘chirib olib o‘tish. Ye.A.Filatova ta’kidlaganidek, “Begonalashtirish (forenization) asl matnning o‘ziga xos xususiyatlarini saqlab qolish imkonini beradi. Bu holatda, qabul qiluvchi (retsipient) ushbu matnni asl matnning lingvistik va madaniy farqlarini hisobga olgan holda tarjima qilingan matn sifatida qabul qiladi” [3, 2]. Misol uchun, ing. “*Nickel Boys*” – o‘zb. “*Nikellik bolalar*” – rus. “*Мальчишки из “Никеля”*”, ing. “*Sing Sing*” - o‘zb. “*Sing Sing*” – rus. “*Синг-Синг*”, ing. “*West Side Story*” – o‘zb. “*West Side hikoyasi*” – rus. “*Вестсайдская история*”. Bu misollarda tarjima tushunarli bo‘lsa-da, madaniy assotsiatsiyalar to‘liq ochilmaydi.

Xulosa qilib aytganda, film nomlari tarjimasi alohida lingvistik e’tiborga loyiq tadqiqot obyekti bo‘libgina qolmasdan, uning tarjimasi zahirida ko‘plab lingvomadaniy tanlovlar, imkoniyatlar va cheklovlar yotadi. Bu maqola esa global kino olamining so‘nggi 5 yillik tajribasini qamrab olib, tarjima jarayonidagi lingvistik yondashuvlarga bog‘liq masalalarni yoritib berishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Anissimov, V.E., Borissova, A.S. & Konson, G.R. Linguocultural Localization of Movie Titles. Russian Journal of Linguistics.



2019. Vol. 23(2), pp. 435–459, <https://doi.org/10.22363/2312-9182-2019-23-2-435-459>

2. Ermolenko A. Yu., Zaripova Z. M., Mironova O. A. Linguocultural localization: Tendencies of American film titles in translation into Russian // *Res Militaris*. 2022. Vol. 12, No. 3, pp. 421–425.

3. Филатова Е. А. Переводческие стратегии доместикации и форенизации (на примере документальных фильмов) // *Russian Linguistic Bulletin*. 2023. №11 (47).

4. Afisha.uz. – URL: <https://www.afisha.uz/ru> (murojaat qilingan sana: 15.02.2026).

5. Kinopoisk.ru – URL: <https://www.kinopoisk.ru> (murojaat qilingan sana: 15.02.2026)

